

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Materialshunoslik institutiga Shanxay texnologiyalar transferi markazi vakillarining tashrifi tafsilotlari



Kuni kecha Fanlar akademiyasi Materialshunoslik institutiga yangi ilmiy loyihalarni amalga oshirish avvalida Shanxay texnologiyalar transferi markazi ilmiy xodimlari tashrif buyurishdi. Ikki mamlakat olimlarining samimiy ruhda o'tgan uchrashuvda kelgusidagi hamkorlik masalalari kelishib olindi.

Inson faoliyati natijasida paydo bo'layotgan issiqxona gazlari 20-asrning o'rtalaridan boshlab kuzatilayotgan iqlim o'zgarishining asosiy sababi bo'ldi. Issiqxona gazlari chiqindilarining davom yetishi butun dunyo bo'ylab uzoq muddatli o'zgarishlarni keltirib chiqaradi, odamlar va ekotizimlar uchun jiddiy, keng tarqalgan va qaytarilmas oqibatlar ehtimolini oshiradi.

Bugun mamlakatlar iqlim o'zgarishini yumshatish milliy strategiyasining bir qismi sifatida kam uglerodli yoki karbonsizlangan iqtisodiyotga aylanishga intilmoqda. Kam uglerodli iqtisodiyotga o'tish uchun qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tishni rag'batlantirish, energiyadan samarali foydalanish, energiyani tejash, transportni elektrlashtirish (elektrmobillar), uglerodni ushlab turish va saqlash va iqlimga moslashuvchan qishloq xo'jaligi kabi ko'plab strategiya va yondashuvlar mavjud. Bularni amalga oshirish uchun tadqiqotlarni rivojlantirish va kengaytirish, keng tarqalgan innovatsiyalar va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda korxonalarni rag'batlantirish talab etiladi.

Uchrashuvda ikkita tashabbus muhokama qilinadi:

birinchi tashabbus - Shanxay texnologiyalar transferi markazining "Bir makon bir yo'l" doirasida kam uglerodli texnologiyalar va innovatsion hamkorlik bo'yicha xalqaro alyansni tashkil etish;

ikkinchi tashabbus - Materialshunoslik institutining Alyansning texnologik platformalaridan biri sifatida qaralishi mumkin bo'lgan "Katta Quyosh qurilmasi" noyob ilmiy inshooti negizida "Yashil texnologiyalar vodiysi" xalqaro ilmiy xabini yaratish.

Tashabbuslarning amalga oshirilishi kam uglerodli iqtisodiyot sohasida ilg'or innovatsiyalarni yaratish, yashil texnologiyalar va materiallardan foydalangan holda kompaniyalarning raqobatbardosh pozitsiyalarini mustahkamlash uchun keng imkoniyatlar ochadi. Xalqaro ilmiy tashabbuslarning maqsadli rivojlanishi turli sohalarda innovatsion rivojlanishning kuchli drayveriga aylanadi. Bunday ulkan maqsadlarga erishish uchun xalqaro ilmiy hamjamiyatning sa'y-harakatlarini birlashtirish kerak.

Uchrashuv doirasida Materialshunoslik institutining innovatsion ishlanmalari taqdimoti bo'lib o'tadi, jumladan: issiqxonalar uchun haroratni mo'tadillashtiruvchi plenka, issiqlik saqlovchi va issiqlikni aks ettiruvchi materiallar, vodorod energiyasi uchun materiallar, qishloq xo'jaligi uchun sovuq plazma texnologiyalari doirasidagi tadqiqotlar xususida fikrlar almashinildi.

Muzokaralar so'nggida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Materialshunoslik instituti va Shanxay texnologiyalar transferi markazi o'rtasida hamkorlik memorandumini imzolandi. Shuningdek, Materialshunoslik instituti va "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti qoshidagi Nazariy va amaliy tadqiqotlar instituti o'rtasida "NanoTech" qo'shma laboratoriyasini tashkil etish to'g'risida ham memorandum imzolanadi. Bu hamkorliklar rivojlanish yo'lidagi tadqiqotlarga asos bo'lib xizmat qilishi shubhasiz.